



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2



ТОШКЕНТ-2024

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобоҷонова Дилором Бобоҷонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлоқ
хужалиғини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайжон давлат
иқтисодиёт университети

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариши муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Джоробекова Айнуэр Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Раҳмонкулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Санпова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc)
Ўзбекистон Миллий университети


Худайкулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далам педагогика институти

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Чу Бей Бей ЗАМОНАВИЙ ДУНЁДА МАДАНИЙ-ИҚТИСОДИЙ АЛОҚАЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БУЮК ИПАК ЙЎЛИНИНГ ЎРНИ.....	4
2. Yoo In Young ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING SILLA QIROLLIGI BILAN IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI.....	9
3. Umurzok Alibekov USTRUSHONA DENQONCHILIK MADANIYATI TADRIJIY TARAQQIYOTIDA ARXAIK DENQONCHILIK AN'ANALARINING O'RNI.....	14
4. Нилуфар Джураева ЖАДИДЧИЛИК: МИЛЛИЙ МАОРИФ ТИЗИМИГА АЁЛЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШ МАСАЛАСИ.....	23
5. Обиджан Мадаминов ДАВЛАТНИНГ ХАЛҚАРО ИМИЖИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ, УНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА ТАРҒИБ ҚИЛИШ МАСАЛАСИ.....	31
6. Моҳира Матназарова ҚАДИМГИ ХОРАЗМ КЎЧМАНЧИ ЧОРВАДОРЛАРИНИНГ ҲУДУДИЙ ЖОЙЛАШУВИ МАСАЛАЛАРИ.....	36
7. Сапарбой Наврузов АКАДЕМИК РАССОМ ДМИТРИЕВ КАВКАЗСКИЙНИНГ ХИВА ТААССУРОТЛАРИ.....	41
8. Ismoil Nurmetov XX ASRNING 20-30 YILLARIDA O'ZBEKISTONDA HUQUQ-TARTIBOT ORGANLARI FAOLIYATI (Xorazm viloyati misolida).....	50
9. Севара Пулатова МАДАНИЙ ОМИЛЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШГА ТАЪСИРИ ХУСУСИДА.....	56
10. Sardor Umarov BIRLASHGAN GERMANIYA: IJTIMOIY-IQTISODIY MUAMMOLAR.....	62
11. Баҳодир Эшов ҚАДИМГИ СЎҒДНИНГ МИНТАҚАВИЙ МИГРАЦИЯ ТИЗИМИДАГИ ЎРНИ.....	69
12. Одил Эргашев ҚОПЧИҒОЙ УСТАХОНАСИ МУСТЪЕ ДАВРИ КОМПЛЕКСИНИНГ МАДАНИЙ-ДАВРИЙ ХОСЛИГИ ҲАҚИДА.....	76



Yoo In Young
SamDU Arxeologiya kafedrası
mustaqil tadqiqotchisi, juanjoy@hanmail.net

ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO XALQLARINING SILLA QIROLLIGI BILAN IQTISODIY VA MADANIY ALOQALARI

For citation: Yoo In Young. ECONOMIC AND CULTURAL RELATIONS OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA WITH THE KINGDOM OF SILLA IN THE EARLY MIDDLE AGES. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 2, pp.9-13

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.10643329>

ANNOTATSIYA

Keyingi yillarda olib borilgan izlanishlar natijasida dastlabki o'rta asrlarda So'g'd savdogarlari Koreya hududidagi davlatlardan biri Silla bilan savdo va diplomatik aloqalar o'rnatganligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldik. Maqolada ilk o'rta asrlarda O'rta Osiyo xalqlari va Silla davlati o'rtasidagi savdo va madaniy aloqalar haqida so'z boradi. Shuningdek, mavjud yozma va arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy ilmiy tahlili asosida O'rta Osiyo xalqlarining ilk o'rta asrlardagi hunarmandchiligi tarixi, ichki va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalari yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: So'g'd savdogarlari, Buyuk Ipak yo'li, arablar bosqinchiligi, Silla, mahsulotlar, savdo va diplomatik aloqalar.

Ёо Ин Ёонг

Научный сотрудник кафедры археологии СамГУ,
juanjoy@hanmail.net

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ СВЯЗИ НАРОДОВ СРЕДНЕЙ АЗИИ С ЦАРСТВОМ СИЛЛА В РАННЕМ СРЕДНЕВЕКОВЬЕ

АННОТАЦИЯ

В результате исследований, проведенных в последние годы, мы получили информацию о том, что в раннем средневековье согдийские купцы установили торгово-дипломатические отношения с Силла, одним из государств на территории Кореи. В статье говорится о торговых и культурных связях между народами Средней Азии и государством Силла в раннем средневековье. Также на основе сравнительного научного анализа существующих письменных и археологических данных будет освещена история ремесел народов Средней Азии в раннем средневековье, внутренние и внешние торгово-экономические связи.

Ключевые слова: согдийские купцы, Великий Шелковый путь, арабское нашествие, Силла, продукция, торгово-дипломатические отношения.

Yoo In Young

Independent researcher of the Department
of Archeology of SamSU,
juanjoy@hanmail.net

ECONOMIC AND CULTURAL RELATIONS OF THE PEOPLE OF CENTRAL ASIA WITH THE KINGDOM OF SILLA IN THE EARLY MIDDLE AGES

ABSTRACT

As a result of the research carried out in recent years, we got information that in the early Middle Ages, Sogdian merchants established trade and diplomatic relations with Silla, one of the states on the territory of Korea. The article talks about the trade and cultural relations between the peoples of Central Asia and the Silla state in the early Middle Ages. Also, on the basis of the comparative scientific analysis of the existing written and archaeological data, the history of the crafts of the peoples of Central Asia in the early Middle Ages, internal and external trade and economic relations will be highlighted.

Index Terms: Sogdian merchants, Great Silk Road, Arab invasion, Silla, products, trade and diplomatic relations.

1. Dolzarbligi:

O'rta asrlarda Markaziy Osiyoning Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan savdo va diplomatik munosabatlari mavzusini tadqiq etishda mamlakatimiz tarixiy taraqqiyotida muhim o'rin tutgan ichki va tashqi savdo-iqtisodiy aloqalar tarixini mavjud yozma hamda arxeologik ma'lumotlarning qiyosiy – ilmiy tahlili asosida atroflicha o'rganish va yoritish bu kungi tarix fanining muhim vazifalaridan hisoblanadi

Buyuk Ipak yo'li insoniyat tomonidan yaratilgan kashfiyotlarning eng muhimlaridan biridir. Bu yo'lda nafaqat iqtisodiy hamkorlik balki, yirik madaniy ayriboshlash jarayonlari ham yuz bergan. Musiqa san'atining rivojlanishida ham Buyuk ipak yo'lining ahamiyati beqiyosdir. Bizga ma'lumki, Markaziy Osiyo, Eron, Turkiya, Xitoy hududida yashovchi xalqlarning musiqasi bir-biriga yaqin, ohanglari o'xshash, tovushlar jamlashida betakror sharqona nazokat mavjud. Fikrimizni to'ldirish maqsadida ba'zi asoslarni keltirib o'tamiz.

Ilk o'rta asrlarda Turkiston mintaqasida ichki va tashqi savdo har tomonlama rivojlanadi. Bu davr Sug'd iqtisodiy rivojlanganligi, madaniyati, o'ziga xosligi bilan ajralib turgan[4]. Sug'd-turk savdogarlari Buyuk ipak yo'lida Sharq bilan G'arbni bog'lovchi kishilarga, sug'd tili esa o'zaro muloqot tiliga aylanadi.

2. Metodlari va o'rganilganlik darajasi:

Markaziy Osiyo mintaqasining Koreya bilan tarixiy bog'liqligi masalasi XX asrning ikkinchi yarmiga qadar tariximizning sirli jumbog'i bo'lib keldi. XX asr ikkinchi yarmidan e'tiboran fan doirasidagi manbalar asosida bir qator ilmiy tadqiqotlar yuzaga keldi. Ushbu jarayon bilan bog'liq holda Markaziy Osiyoning Koreya yarim orolidagi o'rta asrlar davlatlari bilan o'zaro aloqadorligi, madaniyati va savdo-iqtisodiy aloqalariga doir tadqiqotlar boshlandi.

Markaziy Osiyo mintaqasi va qo'shni hududlarda olib borilgan tarixiy-arxeologik tadqiqotlar natijalari, ilk o'rta asrlarga mansub fors, xitoy, vizantiya, turk va boshqa tillarida yaratilgan yozma manbalar da aks etgan.

Maqolani tayorlash jarayonida yozma manbalar, arxeologik tadqiqot materiallari umumlashma tarzda tadqiq etiladi;

Mintaqaviy va xalqaro savdo-tranzit yo'llari hamda ulardagi savdo-iqtisodiy jarayonlarni tahlil etiladi;

3. Tadqiqot natijalari:

VIII asrning boshlarida Arab xalifaligi Movarounnahr yerlariga bostirib kirgandan so'ng, ba'zi mahalliy aholi vakillari o'z turar joylarini tark etishga majbur bo'ldi.

Qutayba Samarqandni egallagach, podsho G'urakdan (Gurak) o'z saroyini arablarga topshirib, shahardan chiqib ketishini talab qiladi[5]. Savdogarlar shahri Poykendni istilo qilganda, arablar sarkardasi Qutayba, bu yerdagi boylikni ko'rib, bunday boylikni xalifalik xazinasi Bag'dodda ham ko'rmaganligini aytadi. Arablar tomonidan olib borilgan bosqinchilik siyosati avj olgan sharoitda mahalliy xalqlarning ma'lum bir qismi xorijiy davlatlar hududida boshpana topishga majbur bo'ladilar. Ayniqsa, chet el bilan yaqindan aloqada bo'lgan badavlat dehqonlar va boy savdogarlar bu ishni uddasidan tezroq chiqadilar.

Ma'lumki, Xitoyning bir necha shaharlari va Silla (Koreya) davlati poytahti Kenchjuda sug'd-turk savdogarlarining qarorgohlari bo'lgan. Shuning uchun arablar bosqini davrida sug'd-turk aristokratlarining ma'lum bir qismi birinchi navbatda Xitoy va Silla davlatlarida doimiy boshpana topadilar. Ulardan ba'zilari, keyinchalik Xitoy imperatori va Silla qiroli xizmatida bo'lib, alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan bo'lishi mumkin. Bunga Sillaning 38 va 42 qirollari qabri oldidan topilgan haykallar ichida sug'd va turk aristokrat vakillariga tegishli haykallarning mavjudligi guvohlik beradi [1].

Sillaning 38 qiroli Wonseog (785-798) qabri oldidan topilgan 4 ta granitdan tayyorlangan haykalning 2 tasi O'rta Osiyolik etnik gruppaga tegishli [2]. Ularning biri qiroli mozoriga qaraganda o'ng tomonda, ikkinchisi chap tomonda. O'ng tomondagi haykal soqolli erkak kishi bo'lib, boshini chap tomonga biroz burib turibdi. Antropologik nuqtai-nazardan yuzi yevropoid qiyofada. U chap qo'lida hassaga o'xshash predmetni ushlab, o'ng qo'lini musht qilgan holda bukib, ko'kragiga qo'yib turibdi. Ustidagi kiyimi uzun, tovonigacha yetgan, ikki tomoni oyog'ini tepa qismidan to pastigacha kesilgan, ochiq. Belida charm kamar, unga o'ng tomondan dumaloq ko'rinisdagi hamyon, chap tomondan charm lenta osilgan. Haykal ustidagi kostyum kompleksiga ichki ko'ylak, shim va etik ham kiradi. Ikkinchi haykal ham soqolli erkak kishi, bosh kiyimsiz yevropeoid qiyofada bo'lib, birinchi haykaldan farqi, boshi o'ng tomonga biroz burilgan. Soqoli birinchi haykalnikidan uzunroq. O'ng qo'lida hassaga o'xshash predmetni ushlab, chap qo'lini musht qilgan holda bukib, ko'kragiga qo'yib turibdi. Belida charm kamar-belbog'. Bu yerda, birinchi haykaldan farq qilgan xolda, hamyon kamar-belbog'ning chap tomoniga osilgan, o'ng tomonda charm lenta osilib turibdi. Haykalning qolgan atributlari birinchi haykalnikiga o'xshash [3].

Ushbu kostyumga o'xshash kiyimlar Sug'd, Baqtriya va Xorazmda miloddan avvalgi I - milodiy eraning III asrlarda keng tarqalgan. Kushon podsholarining ustida ham shunday kostyumlarni ko'rish mumkin. Ayniqsa, VI-VII asrlarga mansub Panjikent devoriy rasmlarda bunga o'xshash kostyumlar ko'p uchraydi. Qiyosiy tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Kiyimlardagi sezilarli o'zgarishlar VII asrning o'rtalariga to'g'ri keladi va shu ko'rinishda arablar bosqini davrigacha yetib keladi. O'zga yurtlarda boshpana topgan Movarounnahrlik boy-badavlat oilalar o'z urf odati, kundalik turmush tarzi va usti-boshini saqlab qolishga harakat qilishgan.

Ikkinchi obyekt - bu Sillaning 42 qirolining qabri va uning oldidagi haykallar kompleksi hisoblanadi. Qiroli Heungdeok 826-836 yillarda xukmronlik qilgan. Uning qabri Kyonchju shahrining yonida joylashgan. Qiroli qabrining oldida granitdan yasalgan 4 ta haykal saqlangan. Haykallar odam bo'yidan baland bo'lib, yuqorida tilga olingan haykallarga o'xshash stilda yasalgan.

Tahliliy tadqiqotning natijasiga qaraganda, o'ng tomondagi haykalning yuzi oz bo'lsada kengroq, burni ham nisbatan keng. Chap tomondagi haykalning burni qirraliroq bo'lib, yuzining ko'rinishidan yoshroqqa o'xshaydi. Haykallarning antropologik qiyofasi yevropoid irqining ikki daryo oralig'i tipiga mansub bo'lib, etnik jihatdan turkiydir [3].

O'zbekistonning tarixiy o'lkalari hisoblangan Sug'd, Toshkent va Farg'onaning Xitoy bilan o'zaro aloqalari ikki ming yildan uzoqroq tarixga ega. Bu haqida Xitoy yozma manbaalar va arxeologik topilmalar guvohlik beradi. Milodiy eraning birinchi asrlarida Xitoyning bir necha shaharlarida sug'd aristokratlarining xalqaro savdo bilan bog'liq vakillari, savdo rastalari va turar-

joylari bo'lgan. Masalan, VI-IX asrlarda Xitoyning 30 ga yaqin shaharlarida sug'diylar savdo-sotiq ishlari bilan shug'ullanganlar. Aniqlanishicha, ma'lum bir guruh sug'dlik, toshkentlik va farg'onaliklar Xitoyning bir necha shaharlarida istiqomat qilib, savdo bilan shug'ullanganlar. Poytaht shaharlar Chang'an va Luoyang-da ularning alohida mahallalari bo'lgan [9].

Xitoyning 30 ga yaqin shaharlarida Movarounnahrlik savdogarlar savdo qilishgan. Ayniqsa, Xitoyning poytaht shaharlari Chan'an, Luoyang va Silla poytahti Kenchju da ularning katta mahallalari bo'lgan. Arablar bosqini tufayli samarqanlik, buxorolik, ustrushonalik, toshkentlik va farg'onalik ko'plab boy-badavlat oilalar Xitoy va Silla davlati shaharlarida doimiy boshpana topadilar. Ular ichidan yetishib chiqqan An Lushan singari buyuk shaxslar Xitoy va Silla davlatlari siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan. Bizning fikrimizcha, yuqorida izoh berilgan haykallar, kelib chiqishi O'zbekistonning tarixiy o'lkalaridan hisoblangan buyuk shaxslarning Silla qirolligi va Xitoy imperiyasi oldidagi xizmatlari evaziga o'rnatilgan [1].

Ayniqsa, Xitoyning poytaht shaharlari Chan'an, Luoyang va Silla poytahti Kenchjuda ularning katta mahallalari bo'lgan. Arablar bosqini tufayli samarqanlik, buxorolik, ustrushonalik, toshkentlik va farg'onalik ko'plab boy-badavlat oilalar Xitoy va Silla davlati shaharlarida doimiy boshpana topadilar. Ular ichidan yetishib chiqqan An Lushan singari buyuk shaxslar Xitoy va Silla davlatlari siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin egallagan. Bizning fikrimizcha, yuqorida izoh berilgan haykallar, kelib chiqishi O'zbekistonning tarixiy o'lkalaridan hisoblangan buyuk shaxslarning Silla qirolligi va Xitoy imperiyasi oldidagi xizmatlari evaziga o'rnatilgan.

Arxeologik tadqiqotlar olib borilgan makonlarda nafaqat moddiy madaniyat, balki ma'naviy madaniyat namunalari ham o'rganiladi. O'rta Osiyoning antik madaniy-tarixiy hududlari Sug'd, Baqtriya, Parfiya, Marg'iyona, Xorazm eramizning boshida o'zlarining musiqa san'ati bilan ajralib turgan. Markaziy Osiyoning qulay geografik sharoiti Sharq va G'arb musiqa san'atining ham rivojlanishiga katta hissa qo'shdi [6].

Ipak yo'lidagi hamma zamonlarning eng yirik shaharlaridan biri qadimgi Samarqandning Afrosiyob qal'asi devoriy suratlarida turli davlatlardan kelgan elchilik munosabatlari tasvirlangan. Ular orasida Xitoydan kelgan mehmonlar va Silla elchilarining tasviri ham uchraydi [10]. Uning Xitoy malikasi qayiqda o'zining ayonlari va tanbur ko'targan musiqachilari bilan tasvirlangan. Bu davr kishilari u yoki bu musiqa asboblarini chalishni o'rganish uchun bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakat hududiga tez-tez o'tib turishgan. Manbalarda qayd etilishicha, miloddan avvalgi I asrda Usun davlati hukmdorining qizi Xitoyga turli cholg'u asboblarini o'rganish va unda ijro etishni o'zlashtirishni maqsad qilib, o'z odamlarini yuborgan ekan [7]. Xitoyning Sion shahrida ikki baqtriyalikning tuya ustida musiqa asboblari bilan tasviri tushirilgan haykalchalar topildi. Ularning qo'llarida rubob, burchakli arfa, fleyta va boshqa musiqa asboblari uchraydi. Bu musiqa asboblari uzoq yillar davomida turli xalqlarning madaniy merosi sifatida qadrlanib keladi [8]. Hozirgi kunda Markaziy Osiyoliklarning arfasiga o'xshash Yanggeum deb nomlanadigan musiqa asbobi madaniy aloqalarning qadimiy ildizlarga ega ekanligini bildiradi.

4. Xulosalar:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Sharq sivilizasiyasining markazlari hisoblangan hamda asoslari yanada qadimgiroq davrlarga borib taqaladigan ilk o'rta asrlar shaharlarining moddiy madaniyati, ularning iqtisodiy taraqqiy etishi hamda xalqaro aloqalari tarixiy – madaniy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda kechgan.

Ilk o'rta asrlar tadqiqotlarining tahlili shuni ko'rsatadi-ki, bugungi kunga qadar tarix fanining muhim tarmoqlari bo'lgan manbashunoslik tahlillari hamda arxeologiya sohasida mamlakatimiz hududida izchil tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, bu tadqiqotlar davomida qo'lga kiritilgan hunarmandchilik ishlab chiqarishi namunalari va ular asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar mazkur davr hunarmandchiligi va savdo-iqtisodiy, madaniy aloqalari tarixini alohida tadqiq etish imkoniyatini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Анарбаев А. Араблар босқини ва суғд-турк зодогонларининг тақдири. Ўзбекистон Археологияси. 2016. №2. Б. 23-29
2. Анарбаев А. Узбекистан и Корея (Силла) на Великом Шелковом пути // Another of the Silk Road. Korea Silk Road Project. Geong Gi, 2013. P. 5-6,
3. Анарбаев А. Самаркандский Согд и Фергана на Великом Шёлковом пути // Another Silk Road. Korea Silk Road Project. Geong Gi, 2012. P. 11.
4. Бердимуродов А.Э., Индиаминова Ш. Буюк Ипак йўли (қитаълар ва асрлар оша) Тошкент. Ўзбекистон, 2017. В.14
5. Смирнова О.И. Очерки из истории Согда. М., 1970. С. 207
6. Лубо-Лесниченко Е.И. Великий шелковый пут // Восточный Туркистан в древности и раннем средневековье. М. 1988. С.378.
7. Крюнов М.В. Восточный Туркистан в III в до н.э. – VI в.н.э. // Восточный Туркистан в древности и раннем средневековье // Очерки истории // М., 1988. С.33.
8. Молькеев А.А. Значение Великого шелкового пути в расширении музыкальных связей Средней Азии и дальнего Востока // На Средней Азиатских трассах Великого шелкового пути // Очерки истории и культуры. Т., 1990. С.44-45.
9. Rong Xinjiang. The Migrations Settlements in the Sogdians in the Northern Dynasties, Sui and Tang // China Archaeology and Art Digest. IV.I 2000. P. 119, see map 1
10. 권 영 필. 중앙아시아의 아프라시아 벽화와 고대한국. В. 65.



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

7 ЖИЛД, 2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ТОМ 7, НОМЕР 2

LOOK TO THE PAST
VOLUME 7, ISSUE 2

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000